

## MENEJMENTNING OBIJEKT, SUBIEKT TAMOILLARI

*Ametova Tumaris*

*Ajiniyoz nomidagi NMPI Pedagogika fakulteti*

*Maktab menejmenti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Boshqaruvning jamiyat miqiyosidagi o'рни va menejmentning obyekt va subiyktning oziga xos xususiyatlari

**Kalit so'zlar:** predmet, menejment, boshqarish

Har bir inson o'zining ongli mehnat faoliyatida ma'lum moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishga erishishni istaydi. Ushbu istak kichik ko'lamdan boshlanib hatto jahon miqyosigacha kengayib borib xalqaro biznes ya'ni foyda keltiradigan har qanday ko'lamdagi tijorat ishiga qaratiladi. Masalan, chayqov, kommersiya ishlari, katta daromad keltiradigan korxonalar va shu kabilar va tijorat ishi tizimidagi muommolarga aylanadi. Shaxsiy boylik ya'ni biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs – biznesmen, foyda orttirishga qaratilgan insonning faoliyati turli xil munosabatlardan tashkil topadi.

Biznes–mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir. Har bir firma yoki korxonaning boshqaruv xodimi, mutaxassisi, ijrochisi ilg'or tajriba va fan–texnika yutuqlaridan, aql – idrokka asoslangan holda foydalanishi maqsadga muvofiq. Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti bu kasbiy faoliyat soxasi, ta'lim fanlarining birdan – bir asosiysidir. Uning mazmuni boshqaruv tizimi bilan ob'ekti orasidagi o'zaro munosabatdir.

Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti fanining mazmuni firma yoki korxonaga egalik va raxbarlik qilish, boshqarish orqali ishlarni amalga oshirish, ishbilarmonlar qanday ish yuritishini o'rganish, yangi boshqarish tafakkurini shakllantirish, boshqarishning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish muammosini o'rgatish (tanishtirish, tavsiyalar berish) hisoblanadi.

Menejment – bu kasbiy faoliyat, fan, san'at. Bu marketing, tashkil etish, rejalashtirish, nazorat, korxonalar ichidagi o'zaro ta'sir etishni muvofiqlashtirish, resurslardan foydalanib ishlab chiqarish, korxonaning ma'lum faoliyatining ko'rinishi, mahsulotni uzatish va shu kabilardir.

Fanning maqsadi - mutaxassislar kelajakda firmadagi jamoaning ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini boshqarish sirlarini egallab, uning bo'limi va bo'linmasida menejer bo'lib ishlashga, samarali faoliyat ko'rsatishiga yordam berishdir

Predmet - bu fanning nima bilan shug'ullanishi, uning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilaydi. Nazariya bu sohada yuz beradigan jarayon va hodisalarning ro'y berish qonuniyatlarini aniqlaydi. Har-bir fan o'z predmetini kategoriyalar yordamida o'rganadi. Izlanish usullari nazariyadan kelib chiqqan holda kishilar ilmiy va amaliy

faoliyati qanday amalga oshishini ko'rsatib berishi, fanning shu sohasida hodisalarni umumlashtirish va o'rganishning turli vositalari va usullari tizimini ishlab chiqishi lozim.

“Menejment nazariyasi”ning predmeti- bu boshqaruv munosabatlari doirasida boshqaruv subyekti va obyektini o'rtasida yuzaga keladigan menejment munosabatlaridir. Menejment munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar-ning ajralmas qismi bo'lib, turli iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, psixologik va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Menejment munosabatlari menejment qoi ostidagi xodimlar o'rtasida bo'ladigan aloqa va o'zaro ta'siming murakkab majmuini ifodalaydi, demak, menejment, eng awalo, kishilarni boshqarishdir.

“Menejment nazariyasi” fanning predmeti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- boshqarish nazariyasi va amaliyoti;
- boshqarish obyektini va subyekti;
- boshqarish tamoyillari va usullari;
- boshqarish madaniyatini;
- menejer va uning fazilatlarini;
- menejer reytingi;
- boshqarishda kirishuvchanlik va qaror qabul qilish;
- boshqarish vazifalarini to'g'ri tashkil qilish va amalga oshirish;
- xodimlarni boshqarish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- samaradorlikni boshqarish;
- o'z-o'zini boshqarish;
- xududiy boshqarish va hokozolar. Menejment subyekti. Menejment subyekti - bu

tashkilot doirasida, boshqaruv ta'sirini, uning muammolari va maqsadlarini amalga oshiradigan shaxs yoki shaxslar guruhidir.

Menejment subyekti o'ziga xos xususiyati shundaki, doimo menejment subyekti obyektidan sifat jihatidan ajratib turadigan odamlar (jonli narsalar) bo'lishidir.

Boshqaruv ta'siri deganda - maqsadlar, vazifalar, rivojlanish istiqbollari shakllantirish va ularni amalga oshirishdagi harakatlar

Menejment subyekti sifatida:

- Vazirlar Mahkamasi;
- Vazirliklar va vazirlar;
- Qonun chiqaruvchi hokimiyatlar -Tuman xalq deputatlar kengashi;
- Ijro etuvchi hokimiyatlar;
- Sud hakimiyati;
- Oliy sud, viloyat sudlari;
- Hokimliklar;

-Qo'mitalar va ulaming raislari

Menejment obyektlarining xilma-xilligidan quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- tashkilotning inson resurslari, ulaming vakillari xodimlar,

-bo'ysunuvchilar;

- tashkilot uchun resurslarni yetkazib beruvchilar;

- raqobatchilar;

- mahalliy tarmoqlarni tashkil qiluvchilar va o'matuvchilar, axborot ta'minotni qulay sharoitda taqdim qiluvchilar va hakazo;

- tashkilotning moliyasi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy va pul oqimlari va ularni boshqarish.Ushbu ro'yxatni ko'plab boshqaruv obyektlari bilan to'ldirish mumkin.Misol uchun, boshqaruv obyektlari mamlakatdagi ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatni, mintaqaning infratuzilmasini, siyosiy vaziyatni o'z ichiga oladi.Ushbu boshqaruv subyektlari boshqaruv ta'siriga deyarli javob bermasligiga qaramasdan, ularni hisobga olish va iloji boricha ularni boshqarishga yoki o'z manfaatlari uchun foydalanishga harakat qilish tavsiya etiladi.

Menejment subyekti va obyektining o'zaro aloqasi.Menejment subyektlari va obyektlari birgalikda tashkilotning boshqaruv tizimini ifodalaydi.

Menejment jarayonida - menejment subyektlari(rahbar, apparat, organ) va menejment obyektiga (bo'ysunuvchi, guruh, jamoa) uning sifatiy holatini o'zgartirish uchun ko'rsatilgan maqsadli ta'siri amalga oshiriladi.Shunday qilib, subyektning boshqaruv ta'siriga yo'naltirilgan barcha yondoshuvlari boshqaruv obyektiga taalluqli bo'lishi shart emas. Asosiy mezon-boshqaruv harakatlarining tashkilotga tegishliligi yoki uning maqsadlari va maqsadlarini amalga oshirishdir. Misol uchun, agar menejer o'z uyda ta'mirlash ishlari olib borilsa, bu qaromning ijrochilari boshqaruv obyektlariga aylanmaydi.

Shunday qilib, menejment butun tashkilotga singib ketganday bo'ladi va amalda u faoliyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Ammo menejment va tashkil qilishning o'zaro hamkorlikning butun turli-tumanligida faoliyatning menejment mazmunini tashkil qiluvchi chegaralarini yetarlicha aniq belgilash, hamda uning asosiy turlarini ajratish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish menejmenti-bu ishlab chiqarilayotgan tovarning aniq bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashning majmuaviy tizimidir. U o'z ichiga ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmalarni qurish, ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy-huquqiy shakllarini tanlash, hayot tajribasining oldingi bosqichlariga muvofiq tovarlarni sotish va firma xizmatini ko'rsatish masalalarini oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.YUSUPOV, Z.K.KUSHAROV "MENEJMENT NAZARIYASI" Toshkent 1019
2. S.Gulyamov,G'.Qosimov,D.Holmirzaeva, S.Saidaxmedov "Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti" Toshkent 2013
3. <https://fayllar.org/boshqaruv-va-menejment-boshqaruv-menejmentning-mohiyati-va-tiz.html>